

ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA QO‘LLANILGAN PERIFRASTIK BIRLIKLARNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Toshpo‘latova Nilufar Abdug‘ani qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

E-mail: nilufar.toshpolatova@mail.ru

Annotatsiya: Antroposentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan psixolingvistika masalalarini o‘rganish, bu sohadagi dunyo tilshunosligida qilingan ishlar yutug‘ini o‘zlashtirish va tilshunosligimizga tatbiq etish masalalari bugungi kun lingvistlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola Ulug‘bek Hamdam asarlarida qo‘llanilgan perifrastik birliklarning psixolingvistik tahlilini qilishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, perifrastik birliklar, adresat, adresant, ko‘chma ma’no

Annotation: The study of psycholinguistics, one of the new branches of anthropocentric linguistics, is one of the most important tasks facing linguists today. This article is a psycholinguistic analysis of peripheral units used in the works of Ulugbek Hamdam.

Keywords: psycholinguistics, periphrasis, addressee, addressee, figurative meaning

Ulug‘bek Hamdam asarlarining psixolingvistik tahlilida perifrastik birliklarning ahamiyati. Prafrazalar ham badiiy matnni shakllantiruvchi birliklardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi boblarda prafrazalar haqida ma’lumotlar berilgandi. Ushbu bobda Ulug‘bek Hamdam asarlarida qo‘llangan perifrastik birliklarga ham to‘xtalamiz. Bu atama «**perifraz**» yoki «yunoncha» perifrazis «so‘ziga qaytadi (bu erda peri -» atrofida «va phradzo -» aytaman «) va boshqa so‘z o‘rniga ishlatilgan tropni bildiradi. Perifrazlar qo‘llanish doirasiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi.

a)Umumiy til (ko‘pchilikka tushunarli, ma’lum vaqt ichida mashhur);

b)Individual mualliflik huquqi.

Ulug‘bek Hamdam asarlarida umumiy til (ko‘pchilikka tushunarli, ma’lum vaqt ichida mashhur) bo‘lgan perifrastik birliklar tahlili:

1. **Muayyan joylarni anglatadigan perifraza.** Perifrazaning ayrimlari joy nomlari va boshqa predmet nomlari o‘rnida ham qo‘llanadi. Shunga ko‘ra ular so‘zlovchining nutqining aniq va ta’sirchan qilishi mumkin. Masalan: Men turmushning arzimas yumushlari orasida qolib xor bo‘ldim, men ulardan to‘ydim. Men **bandalik botqog‘idan** chiqib ketolmayotgan o‘zimdan zerikdim. Men tinimsiz ravishda majburiyatlarni, zarurlarni bajarishdan siqildim. Nihoyat, menga chumoli kabi bitta-ikkita izdan yura-yura o‘lib ketish alam qiladi. Nihoyat, men bilgan bu olam Sening butun qudrating hosilasi emas! Men Sening qudratingni ko‘rmoq va ko‘rmoqqa kifoya salohiyat istayman, ey Parvardigor! Bu yerda bandalik botqog‘i birligi orqali ko‘chma ma’noda joyni ifodalamoqda.

2. Hissiy jarayonlarni anglatadigan perifrazalar. Bunda insonga xos bo‘lgan psixologik holat predmet nomiga qo‘shilib tasirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. ...Sog‘inchim hech qonmadi! Meni itdek darbadar kezdirdi, kullaringa urib ishimni tushirdi, Ko‘nglinga esib uyg‘otdi, undan **dunyo havasini** quvdi, ko‘zlarimni kirtaytirdi, ular qa’rida tinimsiz ravishda gurillab yondi bu Olov! Ey do‘st, sen ana shu olov taftini o‘z qalbingda his qilmas ekansan, menga yaqinlashma

3. **Predmetlarini anglatadigan perifraza.** Bunday perifraza orqali muayyan predmetlarning muhim xususiyatlari oydinlashadi. Predmetning muhim xususiyatlari oydinlashishi asosida asardahi psixologik holat ham muayyan darajada ochiladi. Men zohidlik yo‘lini tutmadim. hatto junbisha kelganimda hech kimni tanimasamda, dunyoni **sariq chaqaga** olmasamda, g‘aroyib olam to‘lqinida tebransamda, qaygadir, kimgadir tiyiqsiz va o‘ta kuchli istak-la, sog‘inch-la, iztirob-la talpinsamda, so‘nggida baribir, zaminga qaytishimni bilganimdanmi, jarayon kechishi bilan hushimni sekin-asta to‘play boshlayman. Ushbu parchada sariq chaqa perifrastik birligi orqali dunyoga beparvo, bepisand, undagi jamiki mohiyat ahamiyatsiz

ekanligiga ishora qilmoqda. Sariq chaqa hech degan ma’noni berib, bir pullik kabi iboralar bilan sinonim hisoblanadi. Asar qahramoni uchun dunyoning qadri arzimas ekanligini ifodalamoqda.

4. Shaxsning jamiyada tutgan o’rnini anglatadigan perifraza. Ushbu perifrazada shaxslarning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni, hissasi yoki jamiyat tomonidan olgan bahosi ifodalaydi. Men yig’imga taslim bo’lgandim va u meni o’z to’lkinida oqizardi. Umrimda birinchi bor yig’idan orom oldim. Ko’zyoshlarim shashqatordi, Go’yo alamimga, g’amimga qo’shib yuragimnida yig’lab tashlaydiganday edim. Silkinib-silkinib erib borarkanman, yig’ining kulgidan ustun shodligini ilg’ab qolganimni bilardim. Hech qachon to’xtamasa, derdim bu to’lkinni. Chunki o’g’limni - Muhammadimni o’zimda, jon-jonimda - yig’imda his qilardim. Shu tobda men yig’ini butun dunyoga alishmasdim. Istamaganim holda ichimdagi g’alayon sekin-sekin bosila borib, Nihoyat, tindi. Ko’nglimga quloq tutdim - sokinlik. Endi hech qachon yig’lamasam kerak, bir umrlik ko’zyoshlarimni to’kib bo’ldim shekilli, deb o’yladim. Keyin fikr yurita boshladim: o’zimga-o’zim «Mana, o’g’lim, bor-yo’g’i-shu, hatto eng yaqin odaming - **padari buzrukvorining** ham ko’lidan kelgani - shugina!.. Odamzod bundan ortig’iga qodir emaskan, hayhot!!! Go’ring yorug’ bo’lsin, o’g’lim! Xudoning o’zi yorlakasin!..» dedim. Yuqorida keltirilgan parchada otaning ulug’vor, buyuk va muhtaram zod ekanligini ifodalovchi birlik padari buzrukvor prefirastik birligidir.

5. Frazologik perifrazalar. Ushbu perifrazalar frazeologik xarakterda bo’ladi. Ular predmetni voqea-hodisalarni frazeologik shaklda tasviriy ifodalar bilan nomlaydi. Aniqrog’i, bunda tasviriy ifodalar tarkibidagi bir so’z o’z ma’nosida, ikkinchi so’z esa ko’chma ma’noda keladi. Uyg’ondim, lekin qimir etmay, karaxt bo’lib yotaverdim. Ortda qoldirib kelganim olam - tush ta’siridan birdaniga qutilib, **jismlar makoni** - o’ngimdagi dunyoga ko’nikolmadim. So’ngra jarayon va vaqt o’z ishini qildi - men atrofni ko’ra boshladim. Avvalo, ulkan bir xonani, o’nga derazadan sim-sim quyulib turgan bahor quyoshi ziyosini, ashyoni ilg’adim. Vujudim uyg’ondi, quloqlarim ochildi, burnim ham **ko’klam bo’ylarini** tuydi. Fursat kechar va men tobora yangi narsalarni ko’rar, idrok etar, his qilar, eshitar hamda hatto ta’mini bilib

borardim. Ushbu berilgan matnda Jismlar makoni va ko‘klam bo‘ylari frazeologik perifrazalar hisoblanadi. Bunda birinchi so‘z o‘z ma’nosida, ikkinchi so‘z esa ko‘chma ma’noda qo‘llanilmoqda.

Lingvistik tahlil uchun taqdim etilgan matnlarda perifrastik birliklar yoki perifraza juda tez-tez uchraydi. Stilistikada bu atama tavsifiy ma’noga ega leksik jihatdan bo‘linmaydigan ibora sifatida tushuniladi. Nutqning jozibador bo‘lishida perifrastik birliklarning ham o‘ziga xos ahamiyati mavjud. Ulug‘bek Hamdam asarlarini ham qo‘llanilgan perifrastik birliklar asar tilini psixolingvistik aspektda tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Белянин.В.П. Психолингвистические аспекты художественного текста. Моногрфия. М.:1985
2. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent: Fan 1997
3. A.Primov, X.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. “Adabiyot uchqunlari”, Urganch:2019
4. Umarov I. O‘zbek tili perifrazai- T.:,1996